

JADIDCHILIK HARAKATI: MA'NAVIY UYG'ONISH VA MADANIY YUKSALISH SARI**Maqsudov E'zozbek Sarvar o'g'li***Chirchiq davlat pedagogika universiteti Gumanitar fanlar fakulteti**Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi yo'nalishi I bosqich talabasi**maqsudovezozbek@gmail.com**Ilmiy rahbar: Avazbek Yo'ldashev*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Turkistonda avj olgan jadidchilik harakatining ma'naviy va madaniy ahamiyati chuqur tahlil etiladi. Jadidlar jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurashib, xalqni ilmi bo'lishga, o'zligini anglashga va zamonaviy taraqqiyotga intilishga da'vat etadi. Jadidlarni ma'naviy yuksalishga qaratilgan sa'y harakatlari islom dinini zamonaviylashtirish axloqiy qadriyatlarni mustahkamlash va jamiyatda adolatni o'rnatishga qaratildi. Undan tashqari O'rta Osiyo xalqlarining milliy o'zligini anglashdagi va madaniy yuksalishidagi beqiyos ro'lini ochib beradi. Shuningdek jadidchilikning bugungi kundagi ahamiyati va ibratliari ko'rsatib o'tiladi.*

Kalit so'zlar: *zamonaviy ma'rifiy, jadid, dramaturg, jaholat, jamiyat, g'oya, fikr, jasorat, ma'naviy madaniyat, tarbiya, ilm, matbuot, taraqqiyot, nodonlik, tarix, axloqiy qadriyat, o'zlikni anglash.*

Annotation: *This article provides an in-depth analysis of the spiritual and cultural significance of the Jadid movement, which flourished in Turkestan in the late 19th and early 20th centuries. The Jadids fought against ignorance through enlightenment, calling on the people to become educated, to develop self-awareness, and to strive for modern progress. The Jadids' efforts aimed at spiritual upliftment were directed toward modernizing Islam, strengthening moral values, and establishing justice in society. In addition, the article reveals the invaluable role of the Jadid movement in shaping the national identity and cultural development of the peoples of Central Asia. It also highlights the contemporary relevance and exemplary lessons of Jadidism for today.*

Keywords: *modern enlightenment, Jadid, playwright (dramatist), ignorance, society, idea, thought, courage, spiritual culture, education (upbringing), knowledge, press, progress, illiteracy, history, moral values, self-awareness (national identity).*

Аннотация: *В данной статье глубоко анализируется духовное и культурное значение джадидского движения, получившего широкое распространение в Туркестане в конце XIX — начале XX веков. Джадиды боролись с невежеством посредством просвещения, призывая народ к получению знаний, осознанию своей*

национальной идентичности и стремлению к современному прогрессу. Усилия джадидов, направленные на духовное возрождение, были сосредоточены на модернизации ислама, укреплении нравственных ценностей и установлении справедливости в обществе. Кроме того, раскрывается их неоценимая роль в формировании национального самосознания и культурного развития народов Средней Азии. Также подчёркивается современное значение и поучительные аспекты джадидизма в наши дни.

Ключевые слова: современное просвещение, джадид, драматург, невежество, общество, идея, мысль, мужество, духовная культура, воспитание, знание, печать (пресса), прогресс, безграмотность, история, нравственные ценности, самосознание.

Jadidlar tarixiy-diniy yondashuvda ham islom dinini yangilshga, uni zamonaviy talablarga moslashtirishga harakat qilganlar. Ular Qur'on va hadislarni zamonaviy nuqtai nazardan talqin qilib, diniy aqidalarni soddalashtirishga intilganlar. Shu bilan birga, ular o'z xalqining tarixini o'rganib, milliy qahramonlarni ulug'laganlar. Jadidchilikning asosiy vakillaridan Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Usmon Nosir, Fitrat kabi insonlarni misol qilib olishimiz mumkin. Mahmud xo'ja Behbudiy XX asr boshidagi jadidchilik harakatining asoschilaridan biri, ma'rifatparvar, yozuvchi, dramaturg, jurnalist va jamoat arbobi sanaladi. Behbudiy Turkistonda yangi usuldagi maktablar ochish va ularni rivojlantirishga katta hissa qo'shgan. Shu bilan birgalikda Behbudiyning biz adabiyot sohasida ham o'chmas iz qoldirganligini ko'rishimiz mumkin. U dramalar, maqolalar va o'quv qo'llanmalar yozgan. Uning "Padarkush" dramasi jadidchilikning eng mashhur asarlaridan biri hisoblanadi. Behbudiyning matbuot sohasidagi ishlari ham taqsinga sazovordir. U "Oyinai ibrat" nomli jurnalni tashkil etgan va unda jadidchilik nazariyalrini ilgari surgan. (1) Uning asosiy maqsadlari Xalqni marifatli qilish, jaholatni yo'qotish, Jamiyatni isloh qilish zamonaviy tarqqiyotga erishish kabi keng qamrovli fikrlarni tadbiiq qilgan .

Abdulla Avloniy esa maorif sohasida Turkistonda yangi usuldagi maktablar ochish va ularni rivojlantirishga katta hissa qo'shgan. U maktablar uchun darsliklar va o'quv qo'llanmalarni yozgan. Uning "Turkiy guliston yoxud axloq" kitobi o'zbek adabiyotida bolalar uchun yartilgan ilk asarlardan biri hisoblanadi. Bularga qo'shimcha qilib Abdulla Avloniyning "Advokatlik osonmi" va "Pinak" dramalarini ham keltirib o'tishimiz mumkin. Abdulla Avloniy "Osiyo" nomli jurnal tashkil etgan va unda jadidchilik g'oyalarini targ'ib qilgan. Abdulla Avloniyning "Turkiy guliston yoxud axloq" asarida shunday jumla keladi "Ilm deb o'rganish, yozishni mukammal egallash, har bir kerakli narsalarni chuqur o'zlashtirishdir. Ilm bu dunyoda obro' va e'tibor, oxiratda esa sharaf va saodatdir" (2) degan fikrlari juda ham qimmatlidir.

Bunday yuksak qatorlardan joy olgan yana bir o'zbek jadidlaridan biri shoir, dramaturg Usmon Nosir ham aynan jadidlar orasida muhim o'ringa ega bo'lgan inson hisoblanadi. Uning she'rlari o'zining jo'shqinligi, samimiyligi va vatanparvarligi ruhi bilan ajralib turadi. Jadidlar orasida o'zbek tilini nufuzini oshirish, uni ilmiy tilga aylantirish kabi o'zgacha va shu bilan bir qatorda jasoratli go'yani ilgari surgan adabiyotshunos, tilshunos, pedagog Abdurauf Fitratni ham o'zbek adabiyotida yuksak o'rin tutishi hammmaga ma'lum va mashhurdir. U kishining o'zbek adabiyoti va she'riyatiga qo'shgan hissalarini beqiyosdir. Fitratning poetik she'rlari qatorida Sharq deb nomlangan kichik doston ham salmoqli ahamiyatga ega. Chunki unda shoir Sharqning dardli, og'ir yaralarini yorib ko'rsatadi. Ular yozgan asarlarida Xalqni ma'naviy jihatdan taraqqiyot tomon yetaklash, ularning ongini uyg'otish va jamiyatni madaniyatsizlik botqog'idan olib chiqish kabi keng qamrovli g'oyalar yotadi. O'zbekiston Respublikasi birinchi prezidenti Islom Karimovning "Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch" asarida ham shunday yoziladi. O'z tarixini bilmagan, kechagi kunini unutgan millatning kelajagi yoq.(3) Bunday haqiqat kishilik tarixida ham ko'p bora o'z isbotini topgan. Birinchi prezidentimiz bu kitoblarida jadidlarning fikrlari va ularning ma'naviy qarashlarini ham yoritib o'tgan. Aynan shu kitobda ta'limni tarbiyadan, tarbiyani esa ta'limdan ajratib bo'lmaydi bu sharqona qarash, sharqona xayot falsafasidir degan fikr ham ilgari suriladi. Bunday g'oyalar inson qalbida o'zlikni angalsh, ilm o'rganish va tarbiyani barchasi bilan mujassamlashtirishdek tuyg'ularni jo'sh urishiga katta omil bo'la oladi. Yurtboshimiz Shavkat Mirziyoyev ham 2023-yil 22-dekabrda ma'naviyat va ma'rifat yig'ilishida Jadidlar g'oyasi yangi o'zbekiston strategiyasi bilan har tomonlama uyg'un va hamohang ekanligini ko'rsatib o'tdi.

Demak jadidchilik nafaqat o'z davrining dolzarb masalalariga javob topishga balki kelajak avlodlar uchun ham ibrat bo'ldigan g'oyalarni ilgari surdi. Jadidchilik merosi bizni o'z tariximizni chuqur o'rganishga, milliy qadriyatlarimizni asrab avaylashga va jamiyatimizni yanada tarqqiy ettirishga undaydi. Shu bois, jadidchilik harakatini faqatgina o'tmishning bir sahifasi emas, balki kelajak sari eltuvchi ma'naviy ko'priksifatida qabul qilishimiz lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. D.Alimovning "Jadidchilik fenomeni" 2022-y.T 270b
2. A.Avloniy "Turkiy guliston yoxud Axloq" 2023-y.T 96b
3. I.Karimov "Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch" 2009-y.T 173b